

IQTISODIY ZO‘RAVONLIK HAQIDAGI QARASHLAR EVOLYUTSIYASI VA UNING ZAMONAVIY TALQINLARI

Abdulfaizova Durdona Ikromjon qizi

Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: DurdonaAbdulfaizova2@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiy zo‘ravonlik tushunchasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va uning zamonaviy ijtimoiy-huquqiy talqinlari tahlil qilingan. Nazariy asos sifatida Johan Galtungning struktural zo‘ravonlik nazariyasi va Pierre Bourdieu‘ning ramziy kuch haqidagi qarashlari o‘rganilgan. Xalqaro va milliy qonunchilikdagi yondashuvlar solishtirilib, O‘zbekiston kontekstida iqtisodiy zo‘ravonlikning amaliy ko‘rinishlari empirik ma‘lumotlar asosida ochib berilgan. Tadqiqot natijalari iqtisodiy zo‘ravonlikka qarshi kurashishda qonunchilik, ta‘lim va ijtimoiy ongni o‘zgartirish muhimligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar. Iqtisodiy zo‘ravonlik, struktural zo‘ravonlik, gender tengligi, ramziy kuch, qonunchilik tahlili, ayollar huquqlari, oila barqarorligi, moliyaviy nazorat, ijtimoiy tengsizlik, empirik tahlil

Annotation This article analyzes the evolution and modern interpretations of the concept of economic violence. It explores the theoretical foundations laid by Johan Galtung’s structural violence theory and Pierre Bourdieu’s concept of symbolic power. Comparative legal analysis of international and national legal frameworks is conducted, with a focus on the current context in Uzbekistan. Empirical data is used to reveal the practical manifestations of economic violence. The findings highlight the need for legal reform, educational programs, and societal awareness to effectively address economic violence.

Keywords: economic violence, structural violence, gender equality, symbolic power, legal analysis, women's rights, family stability, financial control, social inequality, empirical analysis

Kirish. Zo'ravonlik zamonaviy jamiyatda keng tarqalgan va tobora kuchayib bormoqda. Iqtisodiy zo'ravonlik inson huquqlari va gender tengligi bilan bog'liq eng sezilmas, ammo eng og'ir zo'ravonlik shakllaridan biridir. Bu zo'ravonlik shakli kishining iqtisodiy resurslardan foydalana olmasligi, daromad topish imkoniyatidan mahrum etilishi yoki moliyaviy qarorlar qabul qilishdan chetda qoldirilishi orqali amalga oshiriladi. Bu atama zamonaviy fan sohasida ayniqsa 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlangan bo'lsa-da, uning ildizlari tarixiy va struktural zo'ravonlik tushunchalariga borib taqaladi. Johan Galtungning "struktural zo'ravonlik" nazariyasi iqtisodiy zo'ravonlikning chuqur ildizlarini tahlil qilish imkonini bergan. Ushbu maqola iqtisodiy zo'ravonlikka doir tushunchalarning evolyutsiyasini, zamonaviy ilmiy yondashuvlar va milliy ijtimoiy muhitda bu hodisaning qanday talqin qilinishini o'rganadi.

Iqtisodiy zo'ravonlik-bu pul va boshqa moddiy resurslardan foydalanishni nazorat qilish, bu moliyani mustaqil ravishda tasarruf etish imkoniyatidan mahrum qiladi va odamni yaqiniga qaram qiladi. Agressorning maqsadi kuchni namoyish etish, jabrlanuvchini ko'proq qaram qilishdir. Oiladagi zo'ravonlikdan jabrlanganlarni himoya qilish bo'yicha Amerika markazlarining ma'lumotlariga ko'ra, boshqa har qanday zo'ravonlik mavjud bo'lgan munosabatlarning 98 foizida moliyaviy bosim va nazorat mavjud bo'ladi¹.

Iqtisodiy zo'ravonlik ayollarga nisbatan zo'ravonlikning keng tarqalgan shakli bo'lib, statistik ma'lumotlarga ko'ra "shaxsga iqtisodiy zarar yetkazadigan har qanday harakat yoki xatti-harakat" deb ta'riflanadi

Adabiyotlar sharxi: Iqtisodiy zo'ravonlik ijtimoiy fanlar, ayniqsa sotsiologiya, gendershunoslik va huquqshunoslik doirasida tobora ko'proq muhokama qilinayotgan murakkab hodisadirga ayanmoqda. Uning nazariy va empirik asoslarini yoritishda bir nechta muhim adabiy manbalar mavjud.

Iqtisodiy zo'ravonlik tushunchasi ilk bor Johan Galtungning (1990) "struktural zo'ravonlik" modeli doirasida tahlil qilingan. Galtungga ko'ra, agar biror shaxs yoki

¹ <https://nasiliu.net/pronasilie/chto-takoe-ekonomicheskoe-nasilie/>

ijtimoiy guruh tizimli darajada imkoniyatlardan mahrum qilinsa – bu bevosita emas, lekin bilvosita zo‘ravonlikdir. Iqtisodiy zo‘ravonlik – resurslar, daromad, ta’lim yoki ish imkoniyatlari bo‘yicha tengsizlik orqali inson salohiyatini cheklashning aynan shunday shaklidir. Ushbu nazariya zamonaviy iqtisodiy zo‘ravonlik tahlillarining nazariy poydevorini tashkil qiladi.

Bourdieu iqtisodiy nazoratni “symbolic violence” (ramziy zo‘ravonlik) bilan bog‘laydi. Unga ko‘ra, ijtimoiy hukmronlik shakllari, jumladan iqtisodiy qarorlarni nazorat qilish ham jamiyatda normal hol sifatida qabul qilinib, aslida ko‘rinmas zo‘ravonlik sifatida amal qiladi. Bourdieu ayollarning iqtisodiy mustaqilligini cheklovchi gender tizimlarni ham zo‘ravonlik manbasi sifatida ko‘rsatadi.

Shiffman o‘zining “The Economics of Violence” asarida iqtisodiy zo‘ravonlikni ijtimoiy tengsizlik, patriarxal ijtimoiy tuzum va ayollarning iqtisodiy resurslardan chetda qoldirilishi bilan bog‘laydi. U bu turdagi zo‘ravonlikni “kam kuzatiladigan, ammo katta oqibatlarga olib keluvchi” hodisa sifatida baholaydi. Uning fikricha, iqtisodiy mustaqillik – gender adolatining asosi.

CEDAW– Ayollarga nisbatan har qanday kamsitishlarga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya, ayollarning iqtisodiy hayotdagi teng huquqli ishtirokini kafolatlaydi. Bu hujjat iqtisodiy zo‘ravonlikni bilvosita kamsitish shakli sifatida tan oladi. BMTning 1993-yildagi “Inson huquqlari va gender zo‘ravonligi” bo‘yicha deklaratsiyasi esa iqtisodiy resurslardan mahrum etishni ayollarga nisbatan zo‘ravonlik shakli sifatida e’tirof etgan.

O‘zbekistonda ushbu mavzuga oid ilmiy yondashuvlar tobora shakllanib bormoqda. G.A. Ishankhanova o‘z tadqiqotida iqtisodiy zo‘ravonlikka oid holatlarni milliy qonunchilik doirasida tahlil qilib, amaldagi normalarning zamonaviy ehtiyojlarga to‘liq javob bermasligini ta’kidlaydi. “Ayollar va bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi qonun”da iqtisodiy zo‘ravonlik alohida shakl sifatida qayd etilmagan, biroq uni qamrab oluvchi holatlar mavjud.

ACTED (2024) va Ijtimoiy Tadqiqotlar Markazining (2023) tadqiqotlari asosida O‘zbekistonda ayollar o‘rtasida iqtisodiy mustaqillik darajasi, moliyaviy

resurslarga kirish imkoniyati va mehnat bozorida to'siqlarga uchrash holatlari statistik jihatdan aniqlangan. Jumladan, ACTED ma'lumotlariga ko'ra, ayollarning 38% daromadlarini mustaqil boshqara olmaydi, 41% esa ishlashiga erlari yoki oila a'zolari to'sqinlik qilmoqda.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar iqtisodiy zo'ravonlikni nazariy va empirik jihatdan o'rganishda mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy yondashuvlar bu zo'ravonlik shaklini faqat ayollarga emas, balki har qanday iqtisodiy jihatdan zaif guruhlariga nisbatan amalga oshiriladigan tizimli cheklov sifatida ko'radi.

O'zbekiston sharoitida bu boradagi huquqiy va amaliy tahlillar hali davom etmoqda va kengaytirilgan empirik tadqiqotlar zarurligini ko'rsatadi.

Metodologiya: Mazkur tadqiqot iqtisodiy zo'ravonlik tushunchasining nazariy asoslari, tarixiy shakllanishi, zamonaviy ijtimoiy talqinlari hamda O'zbekiston sharoitida qanday ko'rinishlarda namoyon bo'layotganini tahlil qilishga yo'naltirilgan. Shu maqsadda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi:

Tarixiy nazariy tahlil metod orqali iqtisodiy zo'ravonlik atamasining evolyutsiyasi, uni belgilagan nazariy asoslar (Johan Galtungning **struktural zo'ravonlik** nazariyasi, Pierre Bourdieu'ning **ramziy kuch** tushunchasi) tahlil qilindi. Ayniqsa, Galtung (1969, 1990) tomonidan zo'ravonlikni bevosita (jismoniy) va bilvosita (tizimli) shakllarda tasniflash yondashuvi, ushbu tushunchaning ilmiy ildizlarini anglashda asosiy vosita bo'lib xizmat qildi. Ushbu yondashuvlar yordamida iqtisodiy zo'ravonlikning ilmiy-nazariy kontseptsiyasi shakllantirildi.

Solishtirma huquqiy tahlil metodi yordamida xalqaro huquqiy hujjatlar (CEDAW, BMT konvensiyalari) va O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchilik bazasi (Oila kodeksi, Jinoyat kodeksi, "Ayollar va bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun) solishtirildi. Bu yondashuv orqali quyidagilar aniqlashtirildi:

- Iqtisodiy zo'ravonlik xalqaro huquqda alohida tan olinganini;
- O'zbekiston qonunchiligida bu tushuncha to'liq yoki aniq yoritilmaganini;

- Ammo ayrim huquqiy normalar orqali bilvosita tartibga solinayotganini ko'rsatdi.

Matnli tahlil. Ommaviy axborot vositalarida (internet portallari, ijtimoiy tarmoqlar, jurnalistik maqolalar) iqtisodiy zo'ravonlikka doir yoritilgan holatlar tanlab olinib, kontent-analiz usulida tahlil qilindi. Jumladan:

- ayollar ishi, daromadi yoki mulki ustidan erlari yoki ota-onalari tomonidan nazorat qilinishi;
- iqtisodiy mustaqillik masalasi jamiyatda qanday talqin qilinayotganligi;
- iqtisodiy erkinlikni yo'qotgan ayollarning psixologik va ijtimoiy oqibatlari.

Bu metod ijtimoiy qarashlar va stereotiplarning mavzuga ta'sirini o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida bir nechta cheklovlarga duch kelindi:

Iqtisodiy zo'ravonlik alohida qonuniy atama sifatida O'zbekiston qonunchiligida mavjud emasligi sababli, tegishli ma'lumotlarni umumiy "oilaviy zo'ravonlik" doirasida ajratib olishga to'g'ri keldi.

Empirik tadqiqotlar ikkilamchi ma'lumotlarga asoslangan; birlamchi anketalar va intervyular o'tkazilmadi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi holatlarni tahlil qilishda sub'ektiv fikrlar va noaniq ma'lumotlar mavjud bo'lib, bu ayrim natijalarning ishonchliligiga ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

Tadqiqot O'zbekiston ijtimoiy-madaniy kontekstida iqtisodiy zo'ravonlikning quyidagi ko'rinishlarini qamrab oldi: ayollarning ishga chiqishiga to'sqinlik qilish; daromadni o'zlashtirish yoki cheklash; mulk ustidan erkin tasarruf qilishni taqiqlash; oilaviy moliyaviy qarorlarni bir tomonlama hal qilish.

Natija Tadqiqot natijalari iqtisodiy zo'ravonlik tushunchasining rivojlanish bosqichlari va uning zamonaviy talqinlarida bir nechta muhim tendensiyalarni aniqladi: Tushunchalar evolyutsiyasi 1960–1980-yillarda iqtisodiy zo'ravonlik "struktural tengsizlik" doirasida muhokama qilingan. 1990-yildan boshlab Galtung va Bourdieu nazariyalari asosida zo'ravonlikning ramziy va tizimli shakllari mustaqil

atama sifatida rivojlanmoqda. 2000-yillarda esa bu tushuncha ayollarga nisbatan gender asosidagi iqtisodiy bosim sifatida xalqaro tashkilotlar tomonidan tan olingan.

Milliy kontekstdagi zamonaviy yondashuvlar: O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida iqtisodiy zo‘ravonlik alohida shakl sifatida nomlanmagan bo‘lsa-da, uning ayrim turlari “Oilaviy zo‘ravonlik” tarkibida ko‘zda tutilgan. Ayollar va bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi qonun (2020) asosida 2023-yilda 21,871 ta himoya orderi berilgan, ularning 80% dan ortig‘i oilaviy zo‘ravonlik bilan bog‘liq.

Empirik ma’lumotlar: ACTED (2024) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda ayollarning 38% moliyaviy qarorlar qabul qilish imkoniyatidan mahrum. So‘rovdan o‘tgan ayollarning 41% ishga chiqishga turmush o‘rtog‘i yoki ota-onasi tomonidan ruxsat etilmasligini bildirgan. 63% ayollar oilaviy budjetni nazorat qilishda ishtirok etmasligini tan olgan.

Muhokama. Johan Galtungning struktural zo‘ravonlik nazariyasi iqtisodiy resurslarga teng kirish imkoniyati yo‘qligini zo‘ravonlik shakli sifatida ko‘rsatgani hozirgi kun tadqiqotlari uchun ham muhim nazariy asos bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, bu nazariya rivojlanayotgan davlatlar kontekstida ijtimoiy tengsizlik va gender adolatsizligini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Zamonaviy jamiyatda iqtisodiy zo‘ravonlikning ko‘rinmasligi: Zamonaviy talqinda iqtisodiy zo‘ravonlik asosan ko‘rinmas shaklda — ishga chiqishga ruxsat bermaslik, daromadni o‘zlashtirish, ayolning moliyaviy mustaqilligini cheklash orqali amalga oshirilmoqda. Bunday shakllar jamiyatda “oddiy oilaviy muomala” sifatida qabul qilinishi, uni aniqlashni yanada murakkablashtiradi.

Milliy ijtimoiy-tarixiy kontekst: O‘zbek jamiyatida patriarxal qadriyatlar kuchli bo‘lib, bu ayollarning iqtisodiy erkinligi ustidan nazoratni “an’anaviy” me’yor sifatida saqlab qolgan. Qonunchilikda bu holatga nisbatan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yondashuv yo‘q, ammo Gender strategiyasi (2021–2030) orqali moliyaviy tenglikka erishish bo‘yicha harakatlar olib borilmoqda.

Amaliy tavsiyalar:

- Qonunchilikda iqtisodiy zo‘ravonlikni alohida shakl sifatida e‘tirof etish lozim.
- Ayollar uchun moliyaviy savodxonlik, tadbirkorlik va yuridik himoya vositalarini kengaytirish zarur.
- OAV va ta‘lim muassasalari orqali iqtisodiy tenglik va moliyaviy erkinlik g‘oyalarini ommalashtirish lozim.

Mazkur tadqiqot iqtisodiy zo‘ravonlikning nazariy asoslari, evolyutsiyasi va zamonaviy talqinlarini tahlil qilish orqali ushbu muammo ko‘lami va murakkabligini ochib berdi. Tarixiy va zamonaviy manbalar tahlili asosida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

Iqtisodiy zo‘ravonlik mustaqil zo‘ravonlik shakli sifatida Galtung va Bourdieu kabi nazariyotchilarning ishlarida asoslangan bo‘lib, bu holat jamiyatda ko‘rinmas, tizimli zo‘ravonlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Xalqaro yondashuvlarda, iqtisodiy zo‘ravonlik gender tengsizlik bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, BMT, CEDAW kabi tashkilotlar tomonidan tan olingan va unga qarshi kurashish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan.

Milliy kontekstdagi holat, O‘zbekiston qonunchiligida bu tushuncha aniq belgilab qo‘yilmagan bo‘lsa-da, ayrim qonuniy normalar orqali bilvosita tartibga solinmoqda. Shunga qaramay, ayollarning iqtisodiy erkinligini cheklovchi holatlar keng tarqalgan.

Empirik natijalar, ayollarning ishga chiqish huquqi, daromad ustidan nazorat va moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki cheklanganligini ko‘rsatadi. Bu esa iqtisodiy zo‘ravonlikning jiddiy ijtimoiy muammo ekanligidan dalolat beradi.

Tavsiyalar:

- Iqtisodiy zo‘ravonlikni alohida tushuncha sifatida qonunchilikda aks ettirish zarur.
- Ayollar moliyaviy savodxonligini oshirish, ularni iqtisodiy jihatdan mustaqil qilish uchun amaliy dasturlar ishlab chiqish lozim.

- Tahliliy tadqiqotlar doirasini kengaytirish, birlamchi empirik tadqiqotlar o'tkazish dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Galtung, J. (1969). **Violence, Peace, and Peace Research**. Journal of Peace Research, 6(3), 167–191.
2. Galtung, J. (1990). **Cultural Violence**. Journal of Peace Research, 27(3), 291–305.
3. Bourdieu, P. (1998). **Masculine Domination**. Stanford University Press.
4. Shiffman, G. (2020). **The Economics of Violence: How Behavioral Science Can Transform Our View of Crime, Insurgency, and Terrorism**. Cambridge University Press.
5. CEDAW (1979). **Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination Against Women**. United Nations.
6. O'zbekiston Respublikasi "Ayollar va bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. (2020).
7. ACTED Uzbekistan. (2024). **Women Empowerment and Economic Participation Report**.
8. Ijtimoiy Tadqiqotlar Markazi. (2023). **O'zbekistonda ayollar holati bo'yicha sotsiologik hisobot**.
9. Ishankhanova, G. (2024). **Economic Violence in Uzbek Families: Legal and Social Challenges**. (nashr etilayotgan maqola).